

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN SABZAVOT VA POLIZCHILIK FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Sabzavot va polizchilik fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Sabzavot va polizchilik bilan

- 1 Dala sabzavotchiligining agrotexnologik asoslari;
2. Tomatdosh sabzavot ekinlar;
3. Piyozbosh sabzavot ekinlar;
4. Bosh piyoz o'stirish texnologiyasi;
5. Sabzavot ekinlar ko'chatini yetishtirish texnologiyasi;
6. Sabzavot ekinlarining tashqi muhit sharoitlariga talabi va ularni boshqarish usullari;
7. Karambosh sabzavot ekinlar;
8. Poliz ekinlari;
9. Sabzavotchilikning biologik asoslari;
10. Sabzavot ekinlarini o'g'itlash;
11. Polizchilikning tarixi va hozirgi ahvoli;
12. Poliz ekinlarining botanik tavsifi va bioekologik xususiyatlari;
13. Tuproqni mulchalash va ekinni ko'chatidan ekish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Dala sabzavotchiligining agroteknologik asoslari	Sabzavot ekinlarni yetishtirishning ilg'or agro texnologik jarayonlarni amalga oshirishning usullari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish kerak.	20 %	8 ta
2	Tomatdosh sabzavot ekinlar	Sabzavot ekinlarining ichida tomatdosh oilasiga mansub bo'lgan sabzavot ekinlarining turlari va navlarining tavsiflarini, pomidor, shirin qalampir, achchiq qalampir va kartoshka o'simligining ahamiyatini va yetishtirish texnologiyasi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	2,5 %	1 ta
3	Piyozbosh sabzavot ekinlar	Sabzavot ekinlarining ichida tomatdosh oilasiga mansub bo'lgan sabzavot ekinlarini turlari va navlarining tavsiflarini bilish.	2,5 %	1 ta
4	Bosh piyoz o'stirish texnologiyasi	Piyoznin g turlari, biologiyasi, ekish muddatlari, ekish sxemasi, ekish me'yorlari va navlarini yetishtirish texnologiyasi qo'llay olish.	2,5 %	1 ta
5	Sabzavot ekinlar ko'chatini yetishtirish texnologiyasi	Urug'larni ekishga tayyorlash usullari, ko'chat yetishtirish usullari, sochma usulda urug' ekish, pikirovkali va pikirovkasiz usullarda ekish, tuvakli va tuvaksiz yetishtirish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	7,5%	3 ta
6	Sabzavot ekinlarining tashqi muhit sharoitlariga talabi va ularni boshqarish usullari	Sabzavotlarning tashqi muhitlarga bo'lgan talabi, harorat, namlik, yorug'lik, havo-gaz muhitining ta'siri haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	10 %	4 ta
7	Karambosh sabzavot ekinlar	Karamdosh sabzavotlarning turlari, biologiyasi, ekish muddatlari, ekish sxemasi, ekish me'yorlari va navlarini yetishtirish texnologiyasini qo'llay olish ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	2,5 %	1 ta
8	Poliz ekinlari	Sabzavot ekinlarining poliz oilasiga mansub bo'lgan sabzavot ekinlarining turlari va navlarining tavsiflarini bilish.	17,5 %	7 ta
9	Sabzavotchilikning biologik asoslari	Xar bir sabzavotlarning tashqi muhitlarga bo'lgan talabi, harorat, namlik, yorug'lik, havo-gaz muhitining ta'siri bilish.	5 %	2 ta

10	Sabzavot ekinlarini o'g'itlash	Sabzavot ekinlarini oziqlantirish muddatlari, me'yorlari, oziqlantirishning usullari, oziqlantirishning sabzavot ekinlarining biokimyoviy tarkibiga ta'siri haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	2,5 %	1 ta
11	Polizchilikning tarixi va hozirgi ahvoli	Poliz ekinlarining turlari, kelib chiqish makonlari, tarixi, O'zbekistonda qovunchilik makonlari haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak.	5 %	2 ta
12	Poliz ekinlarining botanik tavsifi va bioekologik xususiyatlari	Poliz ekinlarining asosiy va kam tarqalgan turlari, kelib chiqish makonlari, botanik nomlari, navlarning tavsifini bilish.	17,5 %	7 ta
13	Tuproqni mulchalash va ekinni ko'chatidan ekish	Poliz yetishtirishda yerni ekishga tayyorlash usullari, ekish usullari, mulchalashning ahamiyati, ko'chatidan yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak.	2,5 %	1 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	17,5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	55 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	27,5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. T.E.Ostonaqulov, V.I.Zuyev, O.Qodirxo'jayev "Sabzavotchilik" Toshkent-2010 y. "N.Doba" XT matbaa bo'limida chop etildi.

2. X.Ch.Buriyev, U.X.Xurramov "Polizchilik" Toshkent-2024 y. "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK Nashriyotida bosildi.